

O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI
VAZIRLIGI
RESPUBLIKA TA'LIM MARKAZI

O`ZBEK TILI
(5-9 sinflar uchun dars ishlanmalari)

TOSHKENT -2011

5-sinf 1-chorak

SPORT O`YINLARI (3-dars)

Darsning ta'limiy maqsadi: O`quvchilarning og`zaki va yozma nutqini o`stirish, lug`at boyligini oshirish. Mustaqil fikrlashga o`rgatish.

Darsning tarbiyaviy maqsadi. : O`quvchilarga sport o`yinlari haqida ma'lumot berish.

Darsning turi: Interfaol.

Darsning jihozlanishi: Kitoblar, rasmlar, tarqatma materiallar, test topshiriqlari.

Darsda foydalaniladigan texnologiya. Hamkorlikda o`qitish texnologiyasi (kichik guruhlarda o`qitish metodi)

Darsning borishi:

Tashkiliy qism – 2 daqiqa.

Uy vazifasini so`rash – 5 daqiqa.

Yangi mavzu: “**Sport o`yinlari**” – 10 - daqiqa.

Grammatika: So`roq olmoshlari va so`roq yuklamalari.. – 5 daqiqa.

Mustahkamlash – 10 daqiqa.

Mashq va topshiriqlarni bajarish – 10 daqiqa.

O`quvchilar bilimini baholash, uyga vazifa berish – 3 daqiqa.

Tashkiliy qism. Darsni tashkil qilish. (Sinf o`quvchilari uch guruhga bo`linib oladilar)

Uy vazifasini so`rash.

O`quvchilar uyga berilgan vazifaga javob berganlaridan so`ng, o`qituvchi o`quvchilarni dars mavzusi, borishi bilan tanishtirib, ularni faoliyatini o`quv topshiriqlarini bajarishga yo`llaydi.

Yangi mavzuni o`rganish. Tayyorlab qo`yilgan ko`rgazmali rasmlar asosida o`qituvchi yangi mavzuni tushintiradi va 2- topshiriqda berilgan matnni ifodali o`qib beradi.

Matn bo`yicha guruhlariga topshiriq: 1. Matnni ifodali o`qing. 2. Mazmunini “*Zanjir*” usulida so`zlab bering. Topshiriqni birinchi va to`g`ri bajargan guruh rag`batlantiriladi.

“Bilib oling” ruknida berilgan ma'lumot asosida Grammatik mavzuni tushintirish.

Yangi mavzu bo`yicha mustahkamlash: mashq va topshiriqlar bajarish.

“Birga raqam qo`yib chiqilgan boshlar” mashg`uliti.

Maqsad: o`quvchilarning yozma va og`zaki nutqini rivojlantirish so`z boyligini oshirish, mustaqil fikrlashga o`rgatish.

Jarayonga barcha o`quvchilarni jalb qiladi; do`stlari bilan o`zaro munosabatlarni o`rnatishga yordam beradi; o`quvchilarning bilimlarini aniqlaydi

Yangi materialga tayyorgarlik ko`rish vaqtida o`quvchilarning mazkur fan bo`yicha baza bilimlarini baholash; o`qib chiqilgan material qanday idrok etilganligini baholash; mavzu bo`yicha haqiqiy axborotni aniqlash uchun qo`llaniladi.

O`tkazish tartibi: Ushbu strategiya 4ta bosqichdan iborat:

1. Guruhdagi har bir o`quvchiga raqam qo`yiladi (masalan, 4 kishidan iborat guruhda 1, 2, 3, 4 kabi raqamlar qo`yiladi).
2. O`qituvchi butun guruhga savol beradi.
3. Guruh birgalikda ishlaydi, «boshga bosh» ravishda, va barcha eshitadigan javobni o`rtaga tashlaydi.

O`qituvchi tasodifiy raqamni aytadi va bunday raqamga ega bo`lgan o`quvchi o`rnidan turadi yoki qo`lini ko`taradi (raqamlarni tasodifiy tanlash uchun parrakdan foydalanish mumkin) va butun guruh uchun javob beradi.

Savollar quyidagicha bo`lishi mumkin: Qanday sport turlarini bilasiz?

Qaysi sport turi bilan shug`ullanasiz? Qaysi sport o`yinini yoqtirasiz?

1-, 2- mashqlarni berilgan shartiga ko`ra bajaring. 2 – 3 - topshiriq og`zaki bajariladi.

O`quvchilar bilimini baholash, uyga vazifa berish.

Uyga vazifa: O`zingiz yoqtirgan sport turi musobaqasini sharhlang.

SPORT O`YINLARI (4-dars)

**Darsning ta`limiy maqsadi:** O`quvchilarning og`zaki va yozma nutqini o`stirish, lug`at boyligini oshirish. Mustaqil fikrlashga o`rgatish.

Darsning tarbiyaviy maqsadi. : O`quvchilarga sport o`yinlari haqida ma`lumot berish.

Darsning turi: Mustahkamlash.

Darsning jihozlanishi: Kitoblar, rasmlar, tarqatma materiallar, test topshiriqlari.

Darsda foydalaniladigan texnologiya. Hamkorlikda o`qitish texnologiyasi (kichik guruhlarda o`qitish metodi)

Tashkiliy qism – 2 daqiqa.

Uy vazifasini so`rash:– 5 daqiqa.

O`tilgan mavzuni mustahkamlash: – 25 daqiqa.

Mashq va topshiriqlarni bajarish – 10 daqiqa.

O`quvchilar bilimini baholash, uyga vazifa berish – 3 daqiqa.

Darsning borishi:

Tashkiliy qism. Darsni tashkil qilish. (Sinf o`quvchilari uch guruhga bo`linib oladilar)

Uy vazifasini so`rash: O`quvchilar uyga berilgan vazifaga javob berganlaridan so`ng, o`qituvchi o`quvchilarni dars mavzusi, borishi bilan tanishtirib, ularni faoliyatini o`quv topshiriqlarini bajarishga yo`llaydi.

Yangi mavzuni o`rganish. Tayyorlab qo`yilgan ko`rgazmali rasmlar asosida o`qituvchi yangi mavzuni tushintiradi.

Yangi mavzu bo`yicha mustahkamlash: mashq va topshiriqlar bajarish.

“Assotsiatsiyalar” mashg`uloti.

Maqsad: o`quvchilarning yozma va og`zaki nutqini rivojlantirish so`z boyligini oshirish, mustaqil fikrlashga o`rgatish.

Ta`rifi

O`quvchilarning har bir guruhiga bo`ljak mavzuni o`rganish bilan bog`liq bo`lgan so`z yoki gap yozilgan plakat beriladi. Uning quyiga o`quvchilar ana shu so`z yoki gap ularning ko`zlari oldida gavdalantiradigan tasavvurlarini yozib qo`yadilar. Masalan: plakatta vertikal yo`nalish bo`yicha tanlangan mavzu bilan bog`liq bo`lgan tushuncha yoziladi. Ushbu so`zning har bir harfiga ishtirokchilar o`z tasavvurlarini bayon qiladilar va yozadilar. Masalan:

S – sog`liq, salomatlik.....

P – poklik, polvon.....

O – orastalik, oqillik.....

R – rostgo`ylik, raqobat.....

T – tezlik, tinchlik.....

Turli guruhlarda bo`ljak mavzuni o`rganish bilan bog`liq bo`lgan har xil so`zlar bo`lgani maqsadga muvofiqdir. Barcha plakatlar ilib qo`yiladi, o`qib eshittiriladi, lekin izohlab berilmaydi.

1-2-mashq, 1-3 topshiriqlarni berilgan shartiga ko`ra bajaring.

O`quvchilar bilimni baholash, uyga vazifa berish.

Uyga vazifa: Savollarga yozma ravishda javob bering.

YANGI FANLARNI O`RGANAMIZ. (5-6 dars)

**Darsning ta`limiy maqsadi:** O`quvchilarning og`zaki nutqini o`stirish, lug`at boyligini oshirish. Mustaqil fikrlashga o`rgatish.

Darsning tarbiyaviy maqsadi. : O`quvchilarga beshinchi sinfda o`tiladigan yangi fanlar haqida tushincha berish. O`quvchilarni har bir fanga bo`lgan qiziqishini, hurmatini uyg`otish.

Darsning turi: Interfaol.

Darsning jihozlanishi: Kitoblar, rasmlar, tarqatma materiallar, test topshiriqlari.

Darsda foydalaniladigan texnologiya. Hamkorlikda o`qitish texnologiyasi (kichik guruhlarda o`qitish metodi)

Dars rejasi

Dars bosqichlari:

Darsning borishi:

Tashkiliy qism – 2 daqiqa.

Uy vazifasini so`rash – 5 daqiqa.

Yangi mavzu: **“Yangi fanlarni o`rganamiz”** – 10 - daqiqa.

Grammatika: Belgilash olmoshlari. – 5 daqiqa.

Mustahkamlash – 10 daqiqa.

Mashq va topshiriqlarni bajarish – 10 daqiqa.

O`quvchilar bilimini baholash, uyga vazifa berish – 3 daqiqa.

Tashkiliy qism. Darsni tashkil qilish. (Sinf o`quvchilari uch guruhga bo`linib oladilar)

Uy vazifasini so`rash. O`quvchilar uyga berilgan vazifaga javob berganlaridan so`ng, o`qituvchi o`quvchilarni dars mavzusi, borishi bilan tanishtirib, ularni faoliyatini o`quv topshiriqlarini bajarishga yo`llaydi.

Yangi mavzuni o`rganish. Tayyorlab qo`yilgan ko`rgazmali rasmlar asosida o`qituvchi yangi mavzuni tushintiradi.

Yangi mavzu bo`yicha mustahkamlash: mashq va topshiriqlar bajarish.

Maqsad: o`quvchilarning yozma va og`zaki nutqini rivojlantirish so`z boyligini oshirish, mustaqil fikrlashga o`rgatish.

**“ZUX” mashg`ulotini** 2- topshiriqda berilgan she`r asosida o`tkazing.

Ta`rifi

Ushbu jadval bilan ishlash ishi ma`lum o`quv materialini o`qish vaqtida amalga oshiriladi:

Bilaman	Bilishni xohlayman	Bilib oldim

1-ustunga o`quvchi mavzu yoki muammo bo`yicha biladigan barcha narsalar yoziladi.

2- ustunga esa o`quvchi javob olishni xohlaydigan savollar yoziladi. Pastroqda matnni o`qib chiqqandan so`ng paydo bo`lgan savollar yoziladi. 3 -ustunga esa ifodalangan savollar ro`parasida javoblar yoziladi.

Quyida yangi fikrlar yozib qo`yiladi.

Savollarga javob izlash jarayoni – qo`shimcha adabiyotda, sinfdoshlar, ustoz bilan bo`lgan suhbatlar chog`ida va sh.o`.

Foydalanish doiralari.

Gumanitar fanlar darslarida (ayrim vaziyatlarda tabiiy-matematik fanlar darslarida) axborot bilan ishlash strategiyasi sifatida, biron mavzu yoki muammo bo`yicha tadqiqotlar o`tkazish uchun.

Afzalliklari.

Axborot bilan mustaqil ishlash ko`nikmalarini rivojlantiradi, savollarni ifodalash qobiliyatini shakllantiradi, tadqiqotchilik ishlari bo`yicha dastlabki ko`nikmalarni beradi.

1 – topshiriq ,1-, 4- mashqlarni berilgan shartiga ko`ra bajaring.
O`quvchilar bilimini baholash, uyga vazifa berish.

Uyga vazifa: “Fanlar baxsi” she`rini ifodali o`qing, o`z so`zingiz bilan so`zlab bering.

YANGI FANLARNI O`RGANAMIZ (6-dars)

Darsning ta’limiy maqsadi: O`quvchilarning og`zaki nutqini o`stirish, lug`at boyligini oshirish. Mustaqil fikrlashga o`rgatish.

Darsning tarbiyaviy maqsadi. : O`quvchilarga beshinchi sinfdan o`tiladigan yangi fanlar haqida tushincha berish. O`quvchilarni har bir fanga bo`lgan qiziqishini, hurmatini uyg`otish.

Darsning turi: Mustahkamlash.

Darsning jihozlanishi: Kitoblar, rasmlar, tarqatma materiallar, test topshiriqlari.

Darsda foydalaniladigan texnologiya. Hamkorlikda o`qitish texnologiyasi
(kichik guruhlarda o`qitish metodi)

Dars rejasi

Dars bosqichlari:

Tashkiliy qism – 2 daqiqa.

Uy vazifasini so`rash:– 5 daqiqa.

O`tilgan mavzuni mustahkamlash: – 25 daqiqa.

Mashq va topshiriqlarni bajarish – 10 daqiqa.

O`quvchilar bilimini baholash, uyga vazifa berish – 3 daqiqa.

Darsning borishi:

Tashkiliy qism. Darsni tashkil qilish. (Sinf o`quvchilari uch guruhga bo`linib oladilar)

Uy vazifasini so`rash: O`quvchilar uyga berilgan vazifaga javob berganlaridan so`ng, o`qituvchi o`quvchilarni dars mavzusi, borishi bilan tanishtirib, ularni faoliyatini o`quv topshiriqlarini bajarishga yo`llaydi.

Yangi mavzuni o`rganish. Tayyorlab qo`yilgan ko`rgazmali rasmlar asosida o`qituvchi yangi mavzuni mustahkamlaydi.

Yangi mavzu bo`yicha mustahkamlash: mashq va topshiriqlar bajarish.

“So`z top” mashg`uloti. Har bir guruhga bittadan konvert tayyorlanadi. Guruh a`zolaridan bir o`quvchi chiqib hoxlagan konvertni tanlaydi. Konvertda fanlar nomi yozilgan qog`ozchalar (matematika, botanika, rasm, geografiya) solingan bo`ladi.

Guruhdagi o`quvchilar shu so`zlarga bittadan gap tuzadilar va izohlaydilar. Masalan, botanika – Biz Botanika darsida o`simliklar dunyosini o`rgandik. Mazmunli va to`g`ri gap tuzgan guruh o`quvchilari g`olib sanaladi.

5- 6-mashq, 3-4 topshiriqlarni berilgan shartiga ko`ra bajaring.

O`quvchilar bilimini baholash, uyga vazifa berish.

Uyga vazifa: Savollarga yozma ravishda javob bering.

II- chorak.

OLTIN KUZ (19-dars)

Darsning ta'limiy maqsadi: O`quvchilarning og`zaki va yozma nutq ini o`stirish , lug`at boyligini oshirish.

Darsning tarbiyaviy maqsadi: O`quvchilarni kuzgi ishlar bilan tanishtirish. Kuz faslining ziynati bilan tanishtirish.

Drsning turi. Yangi bilim beruvchi.

Darsning jihozlanishi: Kitoblar, rasmlar, tarqatma materiallar, Test topshiriqlari.

Dars rejasi.

Tashkiliy qism- 2 daqiqa

Uy vazifasini tekshirish- 10 daqiqa

Yangi mavzu:”Oltin kuz “ Rasm asosida ishlash 20 daqiqa

Mustahkamlash: Mashq va topshiriqlar – 10 daqiqa

O`quvchilar bilimini baholash, uyga vazifa.3- daqiqa

Darsning borishi:

Tashkiliy qism. Uy vazifasini tekshirish.

1—topshiriq.

1- chorakda o`tilgan mavzular bo`yicha savol- javob o`tkazish.

Kelishik qo`shimchalarining qo`llanilishi bo`yicha o`quvchilarga kartochkalar tarqatish. Kartochka tarqatilgandan so`ng vaqtni belgilab berish. Belgilangan vaqtda topshiriqni tez bajargan o`quvchilarni rag`batlantirish.

2—topshiriq.

Mening do`stim, mening sinfdoshim mavzulari bo`yicha uquvchilar o`rtasida savol javob o`tkazish.

Sen do`stingni qaysi xislatlarini yaxshi ko`rasan?

Sinfdoshingga qanday yordam bera olasan?

Yangi mavzuni o`rganish:

*Sinf o`quvchilari ikki guruhga bulindi.* O`quvchilar: “ 1, 2, “- deb navbat bilan sanab chiqadilar 1 – rakamlar – I guruh, 2 – raqamlar – II guruh, bulib bulinib oladilar. Shundan so`ng har bir guruh o`ziga ajratilgan joyni borib egallaydi.

O`quvchilar bajaradigan topshiriqda berilgan «Oltin kuz» aks etgan rasmlar guruhlariga bulib beriladi

1- topshiriq: rasmlar yonida berilgan matnlarni o`z gaplaringiz bilan to`ldiring.

2- topshiriq: rasmlarni qiyoslang.

3- topshiriq: bajarilgan topshiriqlarning himoyasi.

Guruhlar ximoyasidan so`ng o`qituvchi bajarilgan topshiriqlar bo`yicha yakun yasaydi.

Yangi mavzu bo'yicha mustahkamlash: mashq va topshiriqlar bajarish.

1-mashqni yozma bajarish. 2- topshiriq. Matnni o'qish va matn yuzasidan berilgan topshiriqlarni bajarish. 2-mashq, 3-topshiriqni o'quvchilar o'qituvchi yordamida birgalikda bajaradilar.

O'quvchilar bilimini baholash

Uyga vazifa: Oltin kuz mavzusi bo'yicha matn yaratish.

OLTIN KUZ

Tushum kelishigi qo'shimchasining qo'llanishi. (20-dars)

Darsning ta'limiy maqsadi: O'quvchilarning ogzaki va yozma nutqini o'stirish, lug'at boyligini oshirish. Tushum kelishigi qo'shimchasining qo'llanishi bo'yicha tushuncha berish.

Darsning tarbiyaviy maqsadi: O'quvchilarni kuzgi ishlar bilan tanishtirish.

Darsning turi : Mustahkamlash.

Darsning jihozlanishi: Kitoblar, rasmlar tarqatma materiallar, test topshiriqlari.

Dars rejasi.

Dars bosqichlari:

Tashkiliy qism - 2 daqiqa

Uy vazifasini tekshirish - 5 daqiqa

Yangi mavzu: "Oltin kuz".(tushum kelishigi qo'shimchasining kullanishi)- 15 daqiqa

Mustahkamlash -10 daqiqa

Mashq va topshiriqlar – 10 daqiqa

O'quvchilar bilimini baholash, uyga vazifa berish - 3 daqiqa

Darsning borishi

Tashkiliy qism. Uy vazifasini tekshirish.

Oltin kuz mavzusi bo'yicha uyga berilgan topshiriqni so'rash.

--O'quvchilar o'zlari yaratgan matnlarni ifodali va ravon qilib o'qib berishlariga e'tibor berish.

--Yangi o'rganilgan so'zlardan foydalanganligiga e'tibor berish.

--O'quvchilarni bir bировlariga savol berishlarini tashkil etish.

O'quvchilarni dars mavzusi bilan tanishtirish va o'quv topshiriqlarini bajarish.

Yangi mavzuni o'rganish.

Tushum kelishigi qo'shimchasining qo'llanishi.

Tushum kelishigi qo'shimchasi -ni ot va ot vazifasida qo'llangan so'zlarni fe'l bilan(shu jumladan sifatdosh, ravishdosh bilan ham) bog'ashini misollar bilan tushuntirish.

Aziza—ni ko`rdim (ot+sof fe'l)

Aziza---ni ko`rgan edim (ot + sifatdosh)

Aziza---ni ko`rib chiqdim (ot + ravishdosh)

Aziza-- ni ko`rgach bordim(ot + ravishdosh)

Aziza----ni ko`rguncha olgane edim(ot + ravishdosh)

Uyin Mevalar va sabzavotlar

1) Sinf o`quvchilarniing soniga qarab meva va sabzavotlar rasmi aks etgan kartochkalar stol ustiga teskari xolatda ko`yiladi. O`quvchilar xoxlagan kartochkalarini tanlab oladilar. O`quvchilar joylarini egallaganlaridan so`ng o`qituvchi “ Sabzavotlar “ – deb chaqiradi. Kimning ko`lida sabzavot rasmi bo`lsa o`qituvchi ko`rsatgan joyga chiqib turadi. “Mevalar “- deb chaqirilganda mevalar o`z joyini egallaydilar.Kim qolib ketsa mag`lub bo`ladi.

2) **O`quvchilar ko`llaridagi meva yoki sabzavotga tarif beradilar va tushum kelishigini qo`llab gap tuzadilar.** Masalan, Bu olma, rangi sariq, mazasi shirin. Daraxtda o`sadi. Olmani hamma bolalar yaxshi ko`radilar.

Bu karam, rangi yashil, u vitaminlarga boy. Polizda o`sadi. Karamni ukam juda yaxshi ko`radi.

Javob bergan o`quvchilar joylariga borib o`utiradilar. Aniq va tez javob bergan o`quvchilar ragbatlantiriladi.

Yangi mavzu bo`yicha mustahkamlash: mashq va topshiriqlar bajarish

4-topshiriq. Matnni o`qish, tushum kelishigi qo`shilib kelgan so`zlarga e`tibor berish.

O`quvchilar bilimini baholash

Uyga vazifa:Mashq bajarish.Sabzavotlarga oid topishmoq yodlab kelish.

6- sinf

4- chorak

53- dars. DAM OLISH KUNI

Hozirgi- kelasi zamon fe`lining yasalishi va ishlatilishi.

Darsning ta`limiy va tarbiyaviy maqsadi:

O`quvchilarda nutqda hozirgi – kelasi zamon fe`lining yasalishi va ishlatilishi bo`yicha ko`nikma va malaka hosil qilish.

Darsning borishi:

A.O`tgan dars mavzusini takrorlash.

B. Yangi mavzu ustida ishlash

S. Yangi mavzuni mustahkamlash

D. Uyga vazifa

1. O`tilgan dars mavzusini takrorlash:

O`tilgan dars “Navro`z udumlari” mavzusi bo`yicha tarqatma materiallar asosida so`raladi. Ya`ni sinf o`quvchilari ikki guruhga bo`linadi va tarqatma materiallardagi topshiriqlarni qaysi guruh o`quvchilari tez va xatosiz bajarsa shu guruh o`quvchilari g`olib hisoblanadi.

Masalan kartochkalarda quyidagi topshiriqlar yozilgan bo`lishi mumkin.

- Navro`z taomlaridan qaysilarini bilasiz? Misollar keltiring.

- Sumalak qanday tayyorlanishini yozing

- Navro`z haqida she`r aytib bering

2 .Yangi mavzu bayoni.

A. Mavzuga kirish: o`qituvchi fikr ifodalashda hozirgi-kelasi zamon fe'lining nutq jarayonida ifodalanishi haqida gapirib, bugungi mashg`ulotda hozirgi- kelasi zamon fe'lining yasalishi va ishlatilishi bo'yicha o`rganilishini aytadi
Doskaga quyidagi jadval qo`yiladi.

Hozirgi-kelasi zamon fe'lining yasalishi

Birlik	1-sh. O`qi-y-man	Ko`plik	1-sh. O`qi-y-miz
	2-sh. O`qi-y-san		2-sh. O`qi-y-siz
	3-sh. O`qi-y-di		3-sh. O`qi-y-dilar
Birlik	1-sh. Men kel-a-man	Ko`plik	1-sh. Biz kel-a-miz
	2-sh. Sen kel-a-san		2-sh. Siz kel-a-siz
	3-sh. U kel- a-di		3-sh. Ular kel-a-dilar

Hozirgi zamon fe'lining hozirgi-kelasi zamon shakli –a, -y qo`shimchalari yordamida hosil qilinadi. Kelaman, o`qiyman, keladi.

Jadvalda berilgan so`z birikmalari o`quvchilarga tushunarli bo`lishi uchun har bir so`z birikmasi o`z ona tiliga tarjima qilinadi

1-, va 2- mashq bo'yicha o`quvchilar jamoa bo`lib ishlaydilar.

1- mashq. Suhbat matnini o`qing. Ajratib ko`rsatilgan so`zlarning shakliga e'tibor bering. Ularni eslab qoling.

-Nodiraxon, siz qaysi to`garakka qatnashmoqchisiz?

-Men “Yosh adabiyotshunoslar” to`garagiga qatnash-a- man.

-Ertaga nima qilmoqchisiz?

-Ertalab darsga bor-a-man, keyin kutubxonaga kir-a-man. U yerdan kitob ol-a-man.

- Qanday kitob olmoqchisiz.

- Xudoyberdi To`xtaboyevning “Sariq devni minib” asarini ol-a- man.

-O`qib chiqasizmi?

-Ha, o`qib chiqib, insho yoz-a-man.

2- mashq. Matnni o`qing. Undan hozirgi-kelasi zamon fe'lini ifodolovchi so`zlarni toping.

Men ertaga teatrga bor –a-man.

Quvnoq bir qo`shiq ayt-a-man.

Dugonam ko`p kitob o`qi-y-di.

Maktabimizda chet ellik bolalar ham o`qi-y-dilar

Vatan haqida qo`shiq kuyla-y-miz.

3-mashqdagi topshiriq og`zaki tarzda bajariladi.

(Nuqtalar o`rniga kerakli qo`shimchalarni qo`yib matnlarni to`ldiring)

-Xolajon, keling sizga joy ber--man.

-Rahmat, qizim, hozir tush--man.

- Xadrada tush--sizmi?
- Yo`q “ G`uncha” bekatida tush--man.
- Ungacha 3 ta bekat bor, o`tirib turing. U yerda men ham tush—man.
- Rahmat, qizim, baraka top.

3.Yangi mavzuni mustahkamlash:

4,5,6-mashqlarni qatorlarga bo`lib beriladi hamda ularni tez va bexato bajarish bo`yicha musobaqa uyushtiriladi.

4- mashq. Qavs ichida berilgan so`zlarni kerakli shaklda qo`llab, suhbat matnini to`ldiring)

- Men sizni (ko`ramoq)
- Men ham siz bilan (maslahatlashmoq)
- Erta qachon (kelmoq)
- Erta soat 9.00da (kelamoq).

6- mashq. Savollarga javob topib, suhbatni to`ldiring.

- Nodira, bugun qayerga borasiz?
- -----
- Qaysi muzeyga borasiz?
- -----
- Muzeyda nima qilasiz?
- -----
- Eksponatlarni ko`rib, tarixni chuqur o`rganasizmi?
- -----
- Yana nima qilasiz?
- -----

Uyga beriladigan topshiriq og`zaki ravishda tushuntirib beriladi.

4.Uyga vazifa: Hozirgi-kelasi zamon fe'llari ishtirokida 4 tadan gap tuzish.

4-chorak. 54-dars.

Mavzu: DAM OLISH KUNI

Darsning ta'limiy maqsadi: O`quvchilarning so`z boyligini oshirish, lug`at ustida ishlash.

Darsning tarbiyaviy maqsadi: Vaqtdan unumli foydalanish, dam olish kunlarini befoyda o`tkazmaslik, o`quvchilarni rostgo`ylikka o`rgatish, ularda yolg`onning oqibati yaxshilikka olib kelmasligi haqidagi tushuncha hosil qilish.

Darsning jihozlanishi: Darslik, tarqatma materiallar.

Darsda foydalaniladigan texnologiya: Hamkorlikda o`qitish. (kichik guruhlarda ishlash.)

Dars bosqichlari.

1. Tashkiliy qism.

2. O`tilgan mavzu yuzasidan o`quvchilar bilimini savol-javob asosida aniqlash.
3. Yangi mavzu bilan ishlash.
4. Mustahkamlash. Mashq va topshiriqlar.
5. O`quvchilar bilimini baholash, uyga vazifa berish.

1. O`tilgan darsni mustahkamlash.
2. Yangi mavzu ustida ishlash.

O`quvchilar dam olish kuni nima bilan shug`ullanishlari haqida muloqotga kirishadilar. Ularning fikrlarini eshitgach o`qituvchi har bir dam olish kunidan unumli foydalanish, vaqtni bekor o`tkazmaslik haqida fikr yuritadi va quyidagi mashqni bajarish haqida topshiriq beradi.

10- mashq. Quyidagi hikoyani davom ettiring.

Sinf rahbarimsiz dam olish kuni muzeyga borishimizni aytdi. Biz juda xursand bo`ldik. Hammamiz bir joyda yig`ilmoqchi bo`ldik. Hamma keldi, biroq Botir kelmadi.....

1. O`qituvchi o`quvchilarni darsga qiziqtirish uchun quyidagi savollarni beradi.

- Yolg`on gapirish nima uchun yomon hisoblanadi?
- Yolg`onning natijasida nima bo`lishi mumkin?

Bu ikki savol ikkita guruh o`quvchilariga beriladi. Har bir guruhning bergan javoblariga qo`shimcha fikrlari bo`lsa ikkinchi guruh o`quvchilari to`ldirishi mumkin.

So`ngra o`qituvchi o`quvchilarga “Qanday holatlarda yolg`on gapirish mumkin, ya`ni qanday holatlarda yolg`on zarar emas, foyda keltirishi mumkin?” degan savol ham berib, bu haqda o`quvchilarning fikrini eshitiishi mumkin.

Shundan so`ng o`qituvchi bugun mashg`ulotdagi “To`g`ri so`z” hikoyasining qisqacha mazmuni bilan tanishtiradi.

O`quvchilar matnni rollarga bo`lib o`qiydilar.

Lug`at ustida ish olib boradilar.

LUG`AT

Xarxasha qilish	- капризничать
Yalinmoq	- умолять что-то
Va`da bermoq	- дать слово
Xavotir olmoq	- беспокоиться
Ko`zini pirpiratib	- моргая глазами
Bir nimani sezganday	- как будто почувствовало
Dovdirab qolmoq	- растеряться

Lug`atda berilmagan ammo o`quvchilarga notanish bo`lgan so`zlarni ham lug`at daftarlariga yozdiriladi.

3. Yangi mavzuni mustahkamlash.

Savollarga javob bering:

1. Bolalar nima qilmoqchi edilar?

2. Ular nima sababdan Baxtiyorni yolgʻon gapirishga koʻndirmoqchi boʻlishdi?

3. Baxtiyor nimadan qoʻrqdi?

4. Onasi qanday qilib Baxtiyor yolgʻon gapirayotganini bilib qoldi?

5. Onasi Baxtiyorga bergan vaʼdasini bajardimi?

6. Sizningcha yolgʻon gap uchun vaʼda berish mumkinmi?

Oʻquvchilarning fikrlarini eshitgach, ularning fikrlarini mustahkamlab, uyga beriladigan topshiriqni tushuntiradi.

1. Oʻquvchilarni baholash. Uyga vazifa: Matnni oʻqib, mazmunini soʻzlab berish.

7- sinf 3- chorak

VATANGA SADOQAT (1-dars)

Darsning taʼlimiy maqsadi: Oʻquvchilarning ogʻzaki va yozma nutqini oʻstirish, lugʻat boyligini oshirish, oʻqish va yozish malakalarini rivojlantirish.

Darsning tarbiyaviy maqsadi: Oʻquvchilarning oʻz Vatanlariga boʻlgan muhabbatini oshirish. Vatan muqaddas ekanligini ularning ongiga singdirish.

Darsning turi : Takrorlash, mustahkamlash.

Darsning jihozlanishi: Oʻzbekiston Respublikasi xaritasi, darslik, mavzuga oid rasmlar, tarqatma materiallar.

Dars rejasi.

Tashkiliy qism - 2 daqiqa

Takrorlash - 5 daqiqa

Yangi mavzu: Vatanga sadoqat- 15 daqiqa

Mustahkamlash -10 daqiqa

Mashq va topshiriqlar – 10 daqiqa

Oʻquvchilar bilimni baholash, uyga vazifa berish - 3 daqiqa

Darsning borishi:

I. Tashkiliy qism va takrorlash.

Cuhbat: Bunda oʻqituvchi oʻquvchilarga qishki taʼtil taassurotlari bilan bogʻliq savollar orqali bahs -munozara uyushtiradi

Bunda quyidagi savollardan foydalanadi.

2. Qishki taʼtil kunlari siz qaerlarda boʻldingiz?


3. Qanday kitoblar oʻqidingiz?

4. Qish faslida qanday bayramlar boʻlib oʻtadi?

5. Taʼtil kunlari yordamga muhtoj insonlarga yordam bera oldingizmi?

Oʻquvchilar bayram tantanalari, taʼtil taassurotlari haqida soʻzlab beradilar.

II. Yangi mavzu: "Vatanga sadoqat"



“Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir” degan soʻzlar vatanni sevuvchi har bir insonning qalbida yashaydi. Sajda esa eng pok, eng muqaddas, inson aziz boshini qoʻyadigan joydir.

Abdurauf Fitrat bir sheʼrida: “Vatan sajdagohdir”, degan fikrni ilgari surib shunday deydi:

Erta sahar tavof qilgil, bu Vatanimdir,
Na Vatan bu sajdagoh jonim va tanimdir
Koʻkda mohim, osoyish-u izzat, sharaftir,
Ham kaʼbamdir, ham qiblamdir, ham chamanimdir.

Vatanga muxabbat Vatan kabi qadimiyydir. Oʻzbekiston- kelajagi buyuk davlat, deyilganda biz Vatanimizning kelajagiga ishonch bilan qaraymiz.

Oʻqituvchi bu fikrlarni bergach oʻquvchilarni “Vatanga sadoqat” mavzusi boʻyicha savol- javob qilishga jalb etadi. Savollar quyidagicha boʻlishi mumkin.

- Vatan soʻzini qanday tushunasiz?
- Sajdagoh nima?
- Oʻzbekiston qanday davlat?
- Vatanimizning ulugʻ farzandlari kimlar?
- Amir Temur kim?
- Amir Temur millatimiz haqida nima degan?
- Shoirlarimiz ijodining asosiy mavzusi nima?

O`quvchilar tomonidan berilgan javoblarni eshitib, ularning fikrlariga qo`shimcha qilib Vatan haqida hikmat maqollar o`qib beriladi va sinf o`quvchilarini ikki guruhga bo`lib, mana shu o`qilgan maqol va hikmatlarni tasdiqlovchi misollar keltirish so`raladi.

Bunda har bir guruhga 4tadan topshiriq beriladi. Qaysi guruh a`zolari bu topshiriqni tez va mazmunli bajarsa shu guruh o`quvchilari g`olib hisoblanadi.

1- guruh o`quvchilariga topshiriq.

Onaga bo`lgan muhabbat- Vatanga bo`lgan muhabbatning kurtagi.

Har kimning o`z eli o`ziga shirin.

Har qush o`z uyasida erkin.

Vatanning tinch -sen tinch.

2- guruh o`quvchilariga topshiriq.

Vatanga falokat o`zingga halokat.

Ona yurtning omon bo`lsa, rangi ro`ying somon bo`lmas.

Esi butun elidan chiqmas.

Tug`ilgan yurtdan oyoq uzilsa ham, ko`ngil uzilmas.

Darslik bilan ishlash: O`quvchilar mavzuga oid matnni navbatma navbat o`qiydilar, qolgan o`quvchilar eshitgan matnlarini mazmunini tushuntirib beradilar..

Lug`at bilan ishlash: matndagi notanish so`zlarni lug`at daftariga va doskaga yozadilar, hamda ikki tilda o`quvchilar tomonidan aytiladi

Qiyos	-	аналог
Ojiz	-	бессилен
Ilg`ay olmas	-	несообразимый
Zabtga olib	-	завоевав
Zir qaqshatdi	-	заставил дрожать
Zinhor	-	отнюдь
Guvoh	-	свидетель

Yangi mavzu bo`yicha mustahkamlash: mashq va topshiriqlar bajarish

1-mashqdagi topshiriqlarni bajarish.

2-mashq. Mashq shartida berilgan topshiriqlarni og`zaki va yozma bajarish.

III. O`quvchilar bilimini baholash.

Uyga vazifa: “ O`zbekiston” haqida she`r yodlab kelish.

7- sinf. 3- chorak.

VATANGA SADOQAT. Boshlab, tortib ko`makchilarining qo`llanishi. 2- dars.

**Darsning ta`limiy maqsadi:** O`quvchilarning og`zaki va yozma nutqlarini o`stirish, lug`at boyligini oshirish, hamkorlikda ishlash ko`nikmalarini rivojlantirish.

Darsning tarbiyaviy maqsadi: O`quvchilarning o`z Vataniga nisbatan hurmat hissini, Vatan uchun xizmat qilishni o`z oldilariga maqsad qilib quyish lozim ligini uqtirish.

Darsning turi: Takrorlash, mustahkamlash.

Darsning jixozlanishi: Kitoblar, rasmlar, tarqatma materiallar,

Dars rejasi

Tashkiliy qism - 2 daqiqa

Takrorlash- 10 daqiqa

Yangi mavzu:- 10 daqiqa

Mustahkamlash-10 daqiqa

Mashq va topshiriqlar – 10 daqiqa

O`quvchilar bilimini baholash, uyga vazifa berish - 3 daqiqa

Darsning borishi:

“ O`zbekiston” She`riga doir savollar berish.

1. She`rning birinchi o`n satrida shoir O`zbekistonga qanday murojaat etadi?
2. She`rning ikkinchi o`n satrida qaysi jahongir haqida so`z yuritilgan.?
3. She`rning uchinchi o`n satrida qaysi buyuk inson haqida nima deyilgan?

Yodlab kelingan She`rning ifodali o`qilishiga e`tibor berish.

O`quvchilarni dars mavzusi bilan tanishtirish, o`quv topshiriqlarini bajarishga yo`naltirish.

Yangi mavzu: Boshlab, tortib fe`l ko`makchilarining qo`llanilishi.

Ko`makchilar o`zi qarashli bo`lgan so`zdan keyin kelib, uning boshqa so`zlar bilan aloqasini ko`rsatishini misollar bilan tushuntirib berish.

Boshlab, tortib so`zlari fe`l ko`makchilarga kirishini tushuntirib berish..

Masalan: Bugundan boshlab men o`z oldimga “Vatan uchun nima qilayapman” shiorini maqsad qilib qo`yaman.

*O`yin:* (“Mozaika”) Sinf o`quvchilari 3 guruhga bo`linadi. O`quvchilar: “1 -2- 3- “- deb navbat bilan sanab chiqadilar. 1 – raqamlar – I guruh, 2 – raqamlar – II guruh, 3 – raqamlar – III guruh bo`lib bo`linib oladilar. SHundan so`ng har bir guruh a`zolari o`zlariga belgilangan joyni egallaydi

YUqoridagi ko`makchilar ishtirokida tuzilgan gaplar bo`lakchalarga bo`lingan qalinrok qogozga yozilib, konvertlarga joylashtiriladi. Har bir guruhdan bir o`quvchi chiqib hohlagan konvertidan birini tanlab oladi. O`quvchilar konvertdagi so`zlar yozilgan bo`laklarni to`g`ri joylashtirib, gap tuzishlari lozim. Vazifani bajarish uchun 3 daqiqa vaqt beriladi. Vazifani o`z vaqtida bajargan guruh g`olib sanaladi. Bu o`yin o`quvchilarning so`z va so`z shakllarini tug`ri tanlay bilish, qisqa fursatda o`rinli qo`llay olish ko`nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi

Namuna: Bugundan boshlab sport musobaqasiga qatnashaman.

Kattadan tortib kichikkacha hamma shanbalikka qatnashdi

Qatnashaman	Musobaqasiga	Sport	Boshlab	bugundan
-------------	--------------	-------	---------	----------

Yangi mavzu bo'yicha mustahkamlash: mashq va topshiriqlar bajarish.

O'quvchilardan biri doskada darslikdagi 3- mashqda berilgan savollarga javob yozadi, qolgan o'quvchilar o'zlari yozgan javoblarni o'qib beradilar. So'ng 3-topshiriq sharti bo'yicha o'quvchilar diologda ishtirok etishadi va rasm asosida savollarga javob berishadi.

O'quvchilar bilimini baholash.

Uyga vazifa: Boshlab, tortib ko'makchilari ishtirokida 2- tadan gap tuzib kelish.

8-sinf

19-20 dars. DO`STLIK QUDRATI

Darsning ta'limiy maqsadi: O'quvchilarda berilgan She'rdagi asosiy fikrni ajrata olishni o'rgatish. Uyushiq bo'laklarda umumlashtiruvchi so'zning qo'llanishi bilan tanishtirish.

Darsning tarbiyaviy maqsadi. O'quvchilarda do'stga bo'lgan mehr-oqibat, sadoqatlilikni tarbiyalash.

Darsning jihozlanishi: Mavzuga oid qo'shimcha materiallar, darslik, grammatik jadvallar, E.Vohidov va Q.Muhammadiylarning She'riy asarlari to'plami.

T.r.	Dars bosqichlari	Vaqt
1	Yangiliklar haqida axborot	3 daqiqa
2	Uy vazifasini tekshirish va o'quvchilar bilimini baholash	10 daqiqa
3	Yangi grammatik qoida bilan tanishish va uni mustahkamlash, topshiriqlar bajarish.	15 daqiqa
4	Q.Muhammadiyning «O'quvchiga esdalik» She'rini o'qitish va tahlil qilish.	15 daqiqa
5	O'quvchilar bilimini baholash va uyga vazifa berish.	2 daqiqa

Darsning borishi:

1. Yangiliklar haqida axborot eshitish.
2. Uy vazifasini tekshirish. Uyushiq bo'laklar ishtirokidagi gaplarni o'qitib tekshirish va baholash. Bunda uyushiq bo'laklarda vergulning ishlatilishi, uning vazifasi haqidagi tushunchalari aniqlanadi va mustahkamlanadi.
3. Yangi mavzu o'quvchilar bilan rasm va savollar asosida suhbat tashkil qilishdan boshlanadi.
4. Yangi grammatik mavzu: Uyushiq bo'laklarda umumlashtiruvchi so'zning qo'llanishi.

O`qituvchi uyushiq bo`laklarda umumlashtiruvchi so`zning qo`llanishini o`rgatish o`quvchilarning umumiy va xususiy tushunchalarni anglashlari bilan bog`liqligi; umumlashtiruvchi so`z uyushiq bo`laklarga nisbatan umumiy tushunchani ifodalashini misollar bilan tushuntiradi. Mashq va topshiriqlar bajarilgandan so`ng uyushiq bo`laklar umumlashtiruvchi bilan birga qo`llanishi mumkinligi, umumlashtiruvchi so`z uyushiq bo`laklarni jamlab, umumlashtirib ko`rsatish uchun xizmat qilishi, gapda ko`pincha jamlikni bildiradigan otlar, belgilash, bo`lishsizlik va ko`rsatish olmoshlari umumlashtiruvchi so`z bo`lib kelishi ta`kidlanadi. Bu tushunchalar misollar bilan to`ldiriladi.

Mustahkamlash. Darsning bu bosqichida doskaga yozilgan predmet nomlariga mos umumlashtiruvchi so`z tanlash mashqi o`tkaziladi.

Namuna:

E.Vohidov, A.Oripov, Muhammad Yusuf

- shoirlar

Samarqand, Buxoro, Xiva

- tarixiy shaharlar

Boks, tennis, karate

- sport turlari

So`ngra «O`zbek xalq maqollari» kitobidan do`stlik haqidagi maqollardan namunalar o`qitiladi, har bir maqol mazmuni sharhlanadi va daftarga ko`chirtiriladi. O`qituvchi maqollarning mazmunini tahlil qilar ekan, o`quvchilardan har bir maqol haqidagi o`zining mustaqil fikrini bayon qilishni so`raydi. So`ngra Q.Muhammadiyning «O`quvchiga esdalik» yoki E.Vohidovning «Do`st bilan obod uying» She`ri ifodali o`qitiladi. She`rdagi o`quvchilarga notanish bo`lgan so`zlar bo`yicha lug`at ishi o`tkaziladi va shu so`zlar daftarga yozdiriladi. So`ngra o`quvchilardan do`stlikning buyuk qudrati ifodalangan ertaklardan misollar keltirish, ularda do`stlik qay tarzda ifodalanganligi haqida suhbat tashkil qilinadi. SHu tarzda o`quvchilar bilan do`stlik, yaxshilik, do`stga sadoqatlilik mavzularida o`zaro suhbat tashkil qilinadi.

Uyga vazifa: «O`quvchiga esdalik» She`rini yod olish. Uyushiq bo`laklar va umumlashtiruvchi so`zlardan foydalangan holda «Mening do`stim» mavzusida kichik matn yaratish.

8-sinf 20-dars

*Darsning ta`limiy maqsadi:* O`quvchilarga uyushiq bo`laklarda umumlashtiruvchi so`zning qo`llanishi haqida ma`lumot berish.

Darsning tarbiyaviy maqsadi. Do`stlikni asrash, do`stona munosabatga chaqirish.

Darsning jihozlanishi: Darslik, grammatik jadvallar, tarqatma materiallar, E.Vohidov va Q.Muhammadiylarning She`rlari to`plami.

T.r.	Dars bosqichlari	Vaqt
1	O`tilganlarni takrorlash va o`quvchilar bilimini baholash	10 daqiqa
2	Kartochkalar bilan ishlash.	8 daqiqa
3	Grammatik qoida. Mashq va topshiriqlar bajarish.	10 daqiqa

4	«Do'st bilan obod uying» She'ri bilan ishlash.	15 daqiqa
5	O'quvchilar bilimini baholash va uyga vazifa berish.	2 daqiqa

Darsning borishi:

1. Dars uyga berilgan vazifalarni tekshirish bilan boshlanadi. Q.Muhammadiyning «O'quvchiga esdalik» She'ri yoddan aytiriladi. So'ngra o'quvchilar tomonidan yaratilgan «Mening do'stim» mavzusidagi matn o'qitiladi va matnda uyushiq bo'laklar va umumlashtiruvchi so'zlardan qay darajada foydalanganligi tahlil qilinadi.
2. Ushbu darsda Uyushiq bo'laklarda umumlashtiruvchi so'zning qo'llanishi haqida yangi grammatik ma'lumot beriladi.

Qoida. Uyushiq bo'lakli gaplarda umumlashtiruvchi so'z ham ishlatiladi. Umumlashtiruvchi so'z uyushiq bo'laklardan oldin yoki keyin kelishi mumkin. Umumlashtiruvchi so'z ham uyushiq bo'laklar uchun berilgan so'roqqa javob bo'ladi. Umumlashtiruvchi so'z ko'pincha jamlovchi ot, belgilash, ko'rsatish olmoshlari bilan ifodalangan bo'ladi. M: Bog'da har xil mevali **daraxtlar**: o'rik, olma, nok, anjir va hokazo anchagina. Quyosh, havo, suv – **hammasi** biz uchun eng qadrli.

Umumlashtiruvchi so'z uyushiq bo'laklardan oldin kelsa, undan keyin ikki nuqta, keyin kelsa, undan oldin tire qo'yiladi.

3. O'tilgan mavzuni mustahkamlash uchun ayrim o'quvchilarga kartochkalar tarqatiladi. Kartochkalardan namunalar:

1-kartochka

Berilgan gaplardagi umumlashtiruvchi so'zni toping va tinish belgilarini qo'ying.

1. Qarang buncha ham gul yaproqlari chiroyli yirik nafis tiniq.
2. Tohir Aziz SHERzod hammasi shu erda maktab hovlisida ishlashyapti.

2-kartochka

Maqollarning davomini toping va mazmunini tushuntirib bering.

1. Do'stsiz boshim, ...
2. Do'stlikning qadriga ...

3-kartochka

Eng yaqin do'stingizga tavsif bering. Unda umumlashtiruvchi so'zlardan foydalaning.

4. E.Vohidovning «Do'st bilan obod uying» She'ri bilan ishlash: a) She'rda uchragan yangi so'zlarni tushuntirish, gaplar tuzdirish; v) She'rni o'qituvchining o'zi ifodali o'qib, so'ngra o'quvchilarga o'qittiradi, mazmuni ustida ish olib boriladi.

5. Adabiy o'qish uchun berilgan M.Sulaymonovning «Pushaymonlik» masali ustida ishlash. Masalni o'zlashtirish uchun avval undagi yangi so'zlar bilan tanishiladi.

Qaddini ko'tarmoq – подниматься

Maqtana boshlamoq – начать хвастаться
Betakror – неповторимый
E'zozlamoq – почитать
Ta'zim qilmoq – поклоняться, преклоняться
Achchig'i kelmoq – сердиться, злиться
Baxsh etmoq – посвятить
Tenglashtirmoq – равнять, приравнять
Kibrlanmoq – высокомерничать
Ranjimoq – обижаться, огорчаться
Parvarish qilmoq – ухаживать
Pushaymon bo'lmoq – раскаиваться, сожалеть

So'ngra masal 3-4 o'quvchiga rollarga bo'lib o'qitiladi va masal mazmuni qisqacha so'zlatiladi, masal bo'yicha qisqacha savol-javoblar o'tkaziladi.

Uyga vazifa: 1. «Pushaymonlik» masalini o'qib, o'z fikrini yozib kelish.
2. «Do'st bilan obod uying» She'rini yod olish.

9-sinf

27-dars. HUQUQIY BILIMLAR ZARURATI

Darsning ta'limiy maqsadi: O'quvchilarga izohlovchining ifodalanishi haqida ma'lumot berish.

Darsning tarbiyaviy maqsadi. O'quvchilarda huquqiy bilimlarni va huquqiy madaniyatini rivojlantiri.

Darsning jihozlanishi: O'zbekiston Respublikasi Konstituiyasi, darslik, rasmlar, tarqatma materiallar.

Darsning rejasi:

1. Mustaqil ish.
2. Uy vazifasi tahlili.
3. Yangi mavzu bayoni.
4. Mustahkamlash.
5. Matn tuzish.
6. Darsni yakunlash va uyga topshiriq.

Darsning borishi:

1. *Mustaqil ish.* Ko'ra, asosan, binoan ko'makchilari ishtirokida 2 ta gap tuzish topshiriladi.
2. *Uy vazifasi tahlili.* Uy vazifasini tekshirishda o'quvchilarning ko'ra, asosan, binoan ko'makchilarini og'zaki va yozma nutqda qo'llay olishi haqidagi tushunchalari aniqlanadi va mustahkamlanadi.

3. *YAngi mavzu bayoni*. «Xuquqiy bilimlar zarurati» matnini o`qib, huquqiy tushunchalarni bildiruvchi so`z va birikmalarni topib, ko`chirib yozish. Mavzuni yorituvchi mashq va topshiriqlarni bajarish. A.Oripovning «Adolat» She`rini rollarga bo`lib o`qish.

4. *Grammatik mavzu tushuntiriladi*.

Qoida: Izohlovchi aniqlovchining bir turidir. U shaxs yoki predmetni boshqacha nom berish yo`li bilan aniqlaydi. Izohlovchilar, asosan, ot bilan ifodalanib, quyidagi ma`nolarni bildiradi.

1. *Unvonni*: **Professor** N.Mahmudov «Til-millat fahri» mavzusida chiroyli ma`ruza qildi.
2. *Mashg`ulot, kasb, mutaxassislikni*: **Yosh o`qituvchi** o`kuvchilar bilan tezda til topishdi. **Oshpaz** ayol choy damlab keltirdi.
3. *Amalni*: SHanbalikda **maktab direktori** kollektiv bilan birgalikda ishladi.
4. *Jinsni*: Sinfdagi **o`g`il bolalar** ham **qiz bolalar** ham imtihonlarni a`lo baholarga topshirdilar.
5. *Qarindoshlik munosabatini*: Bahrom Nazira **xolasi** va Aziza ammasini birdek yaxshi ko`radi.
6. *Taxallusni*: Zahiriddin Muhammad **Bobur** buyuk sarkarda, shox va shoir edi.
7. *O`xshashlikni*: Vatan – **ona** so`zi naqadar laziz.

4. *Mustahkamlash*. Darsning bu bosqichida mashqlar bilan ishlanadi.

Mashq. Berilgan so`z birikmalari ishtirokida mustaqil gaplar tuzing.

1. Professorning nevarasi, professor Azizov.
2. Armiya generali, general Sobir Rahimov.
3. Kosib yigit, kosibning hunari, To`ra kosib.

Mashq. Berilgan namunalar asosida izohlovchili birikmalarga misollar keltiring.

1. Ayol hamshira, erkak o`qituvchi,
2. Ingliz muhandis,
3. Oshpaz yigit,
4. Zokirjon Xolmuhammad o`g`li Furqat,

Matn tuzish. O`quvchilarda insoniy fazilatlarni shakllantirib borish, ijodiy fikrlash ko`nikmalarini rivojlantirish maqsadida doskaga yozilgan *Xuquq, burch, fuqaro, erkinlik, vijdon, jamiyat, shaxs, qonun* so`zlarining ma`nolarini tushuntirib berish so`raladi. Shu asosda «Vijdon va burch» mavzusida kichik matn tuzish, matnda izohlovchilardan o`rinli foydalanish ta`kidlanadi.

Dars yakunlanib, o`quvchilarda huquqiy bilimlarni egallash zarurligi, biror masalaning echimini topishda aql bilan, odilona hukm chiqarishga yo`naltirish maqsadida «Bilim olish huquqingizdan qanday foydalanayotganligingizni O`zbekiston Respublikasi Konstituiyasining 41-moddasi va boshqa qoidalar asosida yozib, kichik matn tuzish, matnda izohlovchilardan foydalanish» uyga vazifa qilib beriladi.

9-sinf.

47-48 dars. SAN'ATNING SIRLI OLAMI (Sifatdoshning otlashishi)

Darsning ta'limiy maqsadi: Sifatdoshning otlashishi haqida ma'lumot berish, grammatik qoida asosida mashqlar bajarish.

Darsning tarbiyaviy maqsadi. O'quvchilarda o'zbek milliy san'atiga bo'lgan qiziqishlarini orttirish, san'at turlari, san'at asarlari haqidagi bilimlarini rivojlantirish.

Darsning jihozlanishi: Darslik, o'zbek san'at asarlari haqidagi qo'shimcha ma'lumotlar, san'at asarlaridan namunalar, rasmlar, tarqatma materiallar.

Darsning rejasi:

1. Mustaqil ish.
2. Uy vazifasi tahlili.
3. YAngi mavzu bayoni.
4. Mustahkamlash.
5. Matn tuzish.
6. Darsni yakunlash va uyga topshiriq.

Darsning borishi:

O'zaro suhbat. O'quvchilar bilan shu kungi ommaviy axborot vositalarida berilayotgan yangiliklar haqida suhbatlashish. Suhbatda qatnashgan har bir o'quvchining talaffuziga, ohangiga e'tibor bergan holda ularni o'z vaqtida hatolarni tuzatib borish.

Uyga berilgan vazifani tekshirish.

YAngi mavzu bilan tanishtirish. Sifatdoshning otlashishi.

Sifatdosh asosan predmetning belgisi bo'lgan harakatni anglatadi. Masalan: Aytilgan so'z - otilgan o'q. Sifatdosh odatda turlanmaydi. Sifatdoshlarga quyidagi hollarda kelishik afikslari qo'shilishi mumkin. 1. Otlashganda: **Qo'rqkanga** qo'sha ko'rinadi. Bu gapda sifatdosh tomonidan aniqlangan ot (kishi, kishiga) tushib qolganligi uchun sifatdosh otlashadi va kelishik qo'shimchalarini oladi.

O'quvchilarga sifatdoshning otlashishi haqida ma'lumot berilganidan so'ng quyida berilgan mashq va topshiriqlarni og'zaki va yozma ravishda bajartiriladi.

Mashq. Berilgan gaplarni o'qing, otlashgan sifatdoshlarni aniqlang.

1. Ishlamagan tishlamaydi.
2. O'qigan bola elga manzur.
3. Bu kitobni o'qiganman.
4. Qolgan ishga qor yog'ar.
5. O'tirganlardan biri kulib yubordi.
6. Aziza baland bo'yli, kelishgan qiz.
7. Birlashgan o'zar, birlashmagan to'zar.

Topshiriq. Otlashgan sifatdoshlarga misollar keltiring.

Mashq va topshiriqlar bilan ishlangandan so'ng darslikdagi «San'atning sirli olami» matni o'quvchilarga o'qitiladi va mazmunini qisqacha so'zlatiladi. So'ngra o'quvchilarga amaliy san'at turlarining atamalarini o'qib eshittiriladi va lug'at daftariga yozdiriladi. SHu o'rinda darslikdagi 1-mashq og'zaki, 2-mashq yozma

bajartiriladi. Darslikda berilgan 3-topshiriqdagi rasmlar asosida suhbat tashkil qilinadi.

O`tilganlar yuzasidan takrorlash, mustahkamlash.

O`quvchilar bilimini baholash.

Uyga vazifa: O`zbek filmlaridan biri haqida o`z taassurotlarini yozish va shu filmga baho berish. Matnda otlashgan sifatdoshlardan foydalanish.

48-dars.

Darsning ta'limiy maqsadi: Sifatdoshning otlashishi haqida ma'lumotni mustahkamlash.

Darsning tarbiyaviy maqsadi. O`quvchilarda o`zidan kattalarga, o`zbek milliy san'ati va san'atkorlariga bo`lgan qiziqishlarini orttirish.

Darsning jihozlanishi: Darslik, o`zbek san'at asarlari haqidagi qo`shimcha ma'lumotlar, san'at asarlaridan namunalar, rasmlar, tarqatma materiallar.

Darsning rejasi:

1. Mustaqil ish.
2. Uy vazifasi tahlili.
3. Yangi mavzu bayoni.
4. Mustahkamlash.
5. Matn tuzish.
6. Darsni yakunlash va uyga topshiriq.

Darsning borishi:

Dars o`quvchilarning o`zbek san'atkorlari haqida tayyorlab kelgan qo`shimcha ma'lumotlarini tinglashdan boshlanadi. Bunda o`quvchilar bir film taassuroti bo'yicha mashhur san'atkorlar, aktyorlar haqida so`zlab yoki yozganlarini o`qib berishlari mumkin. Matndagi mavzuga aloqador tayanch so`zlar doskaga yozdiriladi. Qolgan o`quvchilarda shu so`zlar ishtirokida gaplar tuzish topshiriladi. O`quvchilar bilimi baholanadi va o`tilganlar mustahkamlanadi.

Yangi mavzuga o`tishgan oldin o`qituvchi o`quvchilarga mashhur o`zbek san'atkorlaridan biri (Tamaraxonim, Abror Hidoyatov va h.k.) haqida qisqacha so`zlab beradi.

Yangi mavzu «Mutal Burhonov» matni. Ushbu matnning qisqa mazmuni o`qituvchi tomonidan so`zlab beriladi. Matn o`quvchilarga o`qitiladi. Matnda uchragan notanish so`zlarning tarjimasi doskaga yozib qo`yiladi. O`quvchilar bu so`zlar bilan tinishib chiqqanlaridan so`ng matn yana bir bor o`qitilib, 2-3 o`quvchiga mazmuni so`zlatiladi.

O`quvchilarga me'morchilik san'ati namunalari aytiladi. Me'morchilik san'atiga oid so`z va atamalarni klaster usulida yozish va ular ishtirokida 5 tadan gap tuzish topshiriladi.

O`tilganlarni takrorlash, mustahkamlash o`quvchilar bilimini baholash.

Uyga vazifa: O`zi yoqtirgan san'atkorga tavsifnoma yozish.